

BUGUNGI KUNDA ARXITEKTURAVIY DIZAYNNING O'RNI

Mamadalliyeva Farangiz Latifovna

SamDAQU Strategik rivojlantirish koordinatorligi bo'lim mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi zamonaviy jamiyatda arxitekturaviy dizaynnning tutgan o'rni, uning shaharsozlik, ekologiya, madaniy merosni saqlash va inson psixologiyasiga ta'siri yoritiladi. Muallif arxitekturaviy dizayn nafaqat bino va inshootlarning tashqi ko'rinishini belgilovchi vosita, balki hayot sifatini oshiruvchi muhim omil ekanligini asoslab beradi. Shuningdek, maqolada innovatsion yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va barqarorlik konsepsiyasining dizayn jarayoniga integratsiyasi tahlil qilinadi.

Annotation: This article explores the role of architectural design in today's modern society, highlighting its impact on urban planning, ecology, preservation of cultural heritage, and human psychology. The author emphasizes that architectural design is not merely a tool for shaping the appearance of buildings and structures, but a crucial factor that enhances the quality of life. The article also analyzes the integration of innovative approaches, modern technologies, and sustainability concepts into the design process.

Zamonaviy dunyoda arxitekturaviy dizayn faqatgina binolarning tashqi ko'rinishini go'zal qilish bilan cheklanib qolmaydi. U inson hayoti, ijtimoiy muhit, ekologik barqarorlik va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim sohalardan biriga aylangan. Har bir bino yoki inshootning dizayni uning funksionalligi, xavfsizligi va estetik jozibasini belgilaydi. Shuning uchun bugungi kunda arxitekturaviy dizaynnning jamiyatdagi o'rni benihoya kattadir.

1. Shahar muhitini shakllantirishda dizaynnning o'rni

Har qanday shahar o'zining arxitekturasi bilan taniladi. Zamonaviy dizayn yondashuvlari orqali shaharlar tartibli, chiroyli va qulay bo'lib boradi. Yaxshi rejalashtirilgan dizayn orqali ko'chalar, binolar va jamoat joylari uyg'un holda quriladi. Bu esa shahar aholisining kundalik hayotini yengillashtiradi.

2. Inson uchun qulay yashash muhitini yaratish

Arxitekturaviy dizayn inson ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi. Binolarning ichki va tashqi tuzilishi, yoritilishi, shamollatilishi va issiqlik izolatsiyasi kabilar inson salomatligi va qulayligi uchun juda muhim. Ayniqsa, maktab, kasalxonalar, ish joyi kabi jamoat binolarining dizayni inson salomatligi va mahsuldarligiga bevosita ta'sir qiladi.

3. Ekologik va barqaror dizayn yondashuvlari

Bugungi kunda dunyo bo'y lab "yashil arxitektura" konsepsiysi keng tarqalmoqda. Bu yondashuvda energiya tejamkor materiallar, qayta tiklanuvchi manbalar, suv tejovchi tizimlar va boshqa ekologik yechimlar qo'llaniladi. Shu orqali

arxitektura faqat inson uchun emas, balki tabiat uchun ham foydali bo'lishi ko'zda tutiladi.

4. Madaniy va tarixiy merosning davomchiligi

Har bir xalqning o'ziga xos arxitektura an'analari bor. Arxitekturaviy dizayn ushbu tarixiy va madaniy unsurlarni saqlab qolishga, ularni zamonaviy uslubda ifodalashga xizmat qiladi. O'zbek arxitekturasida masalan, gumbaz, peshtoq, muqarnas va naqshlar milliylikni aks ettiruvchi asosiy belgilar hisoblanadi.

5. Innovatsion texnologiyalar va raqamli dizayn

Zamonaviy arxitekturaviy dizayn 3D-modelllashtirish, BIM (Building Information Modeling), sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirilmoqda. Bu esa loyihalashtirish jarayonini tezlashtiradi, xatoliklarni kamaytiradi va sifatni oshiradi.

Xulosa

Bugungi kunda arxitekturaviy dizayn inson hayotining barcha jahbalariga chuqur kirib borgan. U nafaqat shaharlarni chiroylar qiladi, balki ularni funksional, xavfsiz va ekologik jihatdan barqaror holga keltiradi. Arxitektura orqali madaniyatimizni ifoda etamiz, texnologik yutuqlarni qo'llaymiz va kelajak uchun qulay muhit yaratamiz. Shuning uchun arxitekturaviy dizayn jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov, Q. (2020). Zamonaviy arxitektura nazariyasi. Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyoti.
2. Norqulova, M. (2019). Arxitekturaviy dizayn asoslari. Samarqand: "Baraka Print".
3. Krier, L. (2009). The Architecture of Community. Washington, D.C.: Island Press.
4. Jencks, C. (2007). The Iconic Building: The Power of Enigma. London: Frances Lincoln.
5. Koolhaas, R. (2004). Content. Köln: Taschen.
6. Pallasmaa, J. (2012). The Eyes of the Skin: Architecture and the Senses. Wiley.